

## ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARINI NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

**Sobirova Munavvarxon Qaxramonjonovna**

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti. 2-boskicch magistrni*

**Anotatsiya:** *Qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy islohotlar va tarkibiy o'zgarishlar natijasida qishloq xo'jaligining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari barqaror o'sib bormoqda. Ushbu maqolada qishloq xo'jaligi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotida muxim xayotiy axamiyatga egadir bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'nalishlarini nazariy-uslubiy asoslari o'rganilgan.*

**Kalit so'zlar:** *bozor iqtisodiyoti, islohot, innovatsiya, texnologiya, ishlab chiqarish, intensiv, fermer xo'jaliklar, qishloq xo'jaligi, klaster, investitsiya, tashkil etish, boshqarish, integratsiya*

O'zbekiston iqtisodiyoti taraqiyotining xozirgi bosqichida agrar isloxatlarni chuqurlashtirishga alovida e'tibor berilmoqda. Sababi qishloq xo'jaligi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotida muxim xayotiy axamiyatga egadir. Chunki qishloq xo'jaligining asosiy vazifasi mamlakat axolisini oziq-ovqat maxsulotlariga va sanoatni xom-ashyoga bo'lgan talabini qondirishdir. Ushbu soxani mamlakatimiz ichki bozorlarida sanoat tovarlariga va xizmatlarga bulgan talablarni shakillanishidagi tutgan o'rni xam o'ta muxim axamiyatga egadir.

2022 yil 28 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni imzolandi va ushbu farmon bilan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi qabul qilindi. Strategiyaning "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" deb nomlangan 3 bo'limining 30-maqсадида: "Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish"<sup>20</sup> vazifalari belgilangan.

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi maxsulotlarini yetishtirish bo'yicha foydalanilayotgan yer va suv resurslarini uta cheklanganligi hisobga olinib, qishloq xo'jaligida kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning intensiv usulidan samarali foydalanilmoqda. Jumladan, intensiv usulning asosiy omillaridan, ya'ni sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini tubdan yaxshilanishi asosida tuproq unumdorligini oshirishiga, suvdan oqilona foydalanishiga, selektsiya ishlarini yanada chuqurlashtirilishiga, yangi texnika va zamonaviy agrotexnologiyalarni ishlab chiqarishga keng joriy etilishiga alovida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaliklari nafaqat qishloq xo'jaligi tovar mahsuloti ishlab chiqarish bilan shug'ullanmoqda, balki, birinchi navbatda o'zlari

<sup>20</sup> 2022 yil 28 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.30-maqсад.

tomonidan yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini saqlab, qayta ishlab, qadoqlab iste'molchilarga tayyor holda yetkazib berish hamda bozordagi talab va taklifdan kelib chiqqan holda qishloq hududlarida turli xildagi xizmatlar ko'rsatib, xo'jalikning moliyaviy barqarorligini yanada oshirayotganligini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy islohotlar va tarkibiy o'zgarishlar natijasida qishloq xo'jaligining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari barqaror o'sib bormoqda. Oxirgi yillarda yurtimiz oziq-ovqat xavfsizligining asosiy tayanchi xisoblangan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, qishloq xo'jaligidagi maxsulot maydonlari tarkibini optimallashtirish, ishlab chiqarishga yangi va ilg'or texnologiyalarni joriy etish, maxsulot navlari va chorva mollari zotini, urug'chilik-selekteziya ishlarini tubdan yaxshilash borasida keng qamrovli, shu bilan birga, puxta o'yangan ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda salkam 36 millionga yaqinlashgan mamalakatimiz aholisini oziq-ovqat va kundalik extiyoj mollari bilan muntazam ta'minlash masalasi iqtisodiy islohotlar jarayonidagi eng dolzarb masalalardan sanaladi. Shuning uchun xam bugungi kunda raqobatlarga dosh bera oladigan iqtisodiyotni shakllantirish islohotlarning bosh maqsadi xisoblanadi.

**«Raqobatbardosh iqtisodiyot» deganda maqbul sur'atlar va mutanosiblik bilan o'sib boradigan milliy iqtisodiyot, unda xususiy mulkchilikka asoslangan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun yaratilgan kerakli sharoitlar, aholi turmush darajasini doimiy yaxshilanib borishiga xizmat qiladigan bozor iqtisodiyoti qonunlari asosida ishlab chiqilgan xo'jalik mexanizmi, ishlab chiqarish resurslari erkin harakatlanadigan va bozor mexanizmi yordamida tartibga solinadigan ochiq iqtisodiy tizim tushuniladi.**

Mamlakatimiz agrar tarmog'ida raqobatbardosh iqtisodiyotni barpo etishda asosiy rol o'ynaydigan soha- **bu qishloq xo'jaligidir**. Iqtisodiyot nazariyasidan ma'lumki, agrar sohani rivojlantirish uchun boshqa sohalarga nisbatan kamroq iqtisodiy resurslar talab etiladi. Agar yaqin besh yilda mamlakatimiz sanoatiga 10-15 milliard AQSH dollariga teng investitsiyalar jalb etish yo'li bilan uni 1,5 baravarga o'stirish mumkin bo'lsa, shu vaqtning o'zida bir necha baravar kam, asosan, ichki moliyaviy resurslar yordamida qishloq xo'jalik mahsulotlarini ikki baravar ko'paytirish mumkin. Buning isboti tariqasida shunday misol keltirish mumkin: bir hektar yerdan **40 tsentner bug'doy** olinsa-daromad jahon bozori narxlarida **800 dollarni** tashkil etadi. Shu maydonдан olinishi mumkin bo'lган 7–8 tonna uzumning qiymati taxminan **8 ming dollarga** teng. **Farq- 10 baravar**. G'allani o'rniغا 300 ming gektarda yuqorida ko'rsatilgan maxsulotlar joylashtirilsa, 5 yildan keyin eksport hajmi qo'shimcha **10 milliard dollarga** ko'payadi. Suv resurslari, mineral o'g'itlar, yoqilg'i sarfining kamayishini inobatga olsak, eksport hajmini aynan uzum, meva va poliz mahsulotlari hisobiga maksimal darajada, ikkilanmasdan kengaytirish kerakligiga hech qanday shubha qolmaydi.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rindiki, bugungi kunda qishloq xo'jaligida iqtisodiy samaradorlik ta'minlanmasa bu demak, nafaqat iqtisodiy balki, bir qator ijtimoiy muammolarni xam keltirib chiqaradi.

Qishloq xo'jaligida birlamchi qishloq xo'jaligi maxsulotlari bugungi kunda maxsulot va bug'doy xisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi O'zbekiston qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i hisoblanadi. maxsulot hozirgi vaqtida asosiy valyuta resursi, Respublika uchun hayotiy muhim bo'lган oziq-ovqat mahsulotlari, dori-darmonlar, texnika va texnologiya uskunalarini import bo'yicha sotib olishni ta'minlayotgan asosiy manbaalardan biridir. Bir tonna maxsulot xomashyosini qayta ishlash jarayonida 3000 m<sup>3</sup> yaqin gazlama, 100-110 kilogram yog', 200-250 kilogram kunjara, 50-60 kilogram sheluxa, 10 kilogram xo'jalik sovuni va boshqa maxsulotlar ishlab chiqariladi.»<sup>21</sup> Bug'doy yetishtirish esa xalqimizni non va non maxsulotlari bilan ta'minlayotgan soha xisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, bozor munosabatlariga o'tish sharoitida qishloq xo'jaligi iqtisodiy samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni nazariy va amaliy jihatdan o'zaro uzviy bog'liqligini hisobga olish talab etiladi. Masalan, qishloq xo'jaligida maxsulot yetishtirish jarayonida inson omilining ta'siri cheklangan xarakterdag'i tabiiy-ekologik omillar me'yorida bo'lган sharoitda agrotexnologik, tashkiliy-iqtisodiy, ijtimoiy yoki huquqiy omillardan qay birini buzilishi tarmoq samaradorligini pasaytiradi. Shu nuqtai nazardan tarmoq rivojlanishi va iqtisodiy samaradorligini belgilovchi omillarni barchasiga bir xil munosabatda bo'lish asosida ulardan samarali foydalanish qishloq xo'jaligini rivojlantirish va iqtisodiy samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga egadir.

Qishloq xo'jaligi iqtisodiy samaradorligi ko'p jihatdan yerdan to'g'ri foydalanish hamda shu asosda hosildorlikni oshirish bilan bog'liqdir. Bu jarayonda qishloq xo'jaligi iqtisodiy samaradorligi tabiiy iqlim sharoitlari doirasidagi farqlar va o'zgarishlarga bog'liq holda shakllanadi. Chunki, tarmoq iqtisodiy samaradorligiga tuproq unumdarligi, tabiiy iqlim sharoitlari, suv bilan ta'minlanganlik, maxsulot maydonlari relef, sizot suvlarining uzoq-yaqinligi va boshqa ko'plab sharoitlar o'z ta'sirini o'tkazadi. Ushbu omillar qishloq xo'jaligida yerdan foydalanish jarayonida o'ziga xos bo'lган ta'sir etish kuchiga ega bo'lib, ularni maxsulot yetishtiruvchilarning hohish irodasi doirasida boshqarish imkoniyatlari cheklangan. Shu jihatdan ushbu omillar ta'siriga ishlab chiqarish jarayonini moslashtirish talab etiladi. Qishloq xo'jaligida tuproq unumdarligini muntazam yaxshilab borish, shu asosda maxsulotlar hosildorligini oshirish, maxsulot maydonlarini suv bilan ta'minlanish darajasini yaxshilash, ishlab chiqarishga yangi biologik va iqtisodiy jihatdan qulay bo'lган maxsulot navlarini joylashtirish, maxsulotlar urug'chilagini takomillashtirish hamda tarmoqda almashlab ekishni to'g'ri yo'lga qo'yish orqali tabiiy va agrotexnologik omillarning o'zaro o'yg'unligini ta'minlashni nazarda tutadi. Maxsulot yetishtiruvchilar o'z mehnati, bilimi va mutaxassisligidan foydalanib tuproq unumdarligini oshirish hisobiga maxsulot hosildorligini ko'tarishlari mumkin. Qishloq xo'jaligi tarmog'ida fan texnika yutuqlaridan qanchalik keng va unumli foydalanilsa tuproq unumdarligi oshib unga sarflanadigan jonli mehnat hissasi kamayib buyumlashgan mehnat hissasi ortib boradi. Natijada har gektar hisobiga olinadigan hosil miqdori ortib, pirovardida qishloq xo'jaligi rivojiga asos bo'ladi.

<sup>21</sup> O.Murtazaev, G'.V.Axrорov. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti (darslik). Toshkent- «ILM ZIYO»-2017,309-b

Tashkiliy-iqtisodiy omillar qishloq xo'jaligi rivojida alohida ahamiyatga ega bo'lib, maxsulot yetishtiruvchilar tomonidan ma'lum maqsad yo'nalishida boshqarishga moyil bo'lgan va yakuniy iqtisodiy natijalarga kuchli ta'sir etuvchi omillar qatoriga kiradi. Qishloq xo'jaligini tashkil etishda maxsulot yetishtiruvchi va iste'mol qiluvchi mamlakatlardagi maxsulot turiga bo'lgan talab va taklifni hisobga olish, maxsulotni yetishtirishda fermer xo'jaliklarini asosiy xo'jalik yuritish shakliga aylanishi, tarmoqdagi moddiy-texnika resurslari ta'minoti kabi masalalarni mavjudligi ularga ilmiy asoslangan nuqtai nazardan qarash zarurligini taqozo etadi. Qishloq xo'jaligini tashkil etish, boshqarish va iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalari maxsulot yetishtiruvchi va iste'mol qiluvchi mamlakatlarda shakllanayotgan qonuniyatlar bilan xam ma'lum ma'noda bog'liqdir. Chunki, jahon bozoridagi maxsulot bahosini aniqlab beruvchi asosiy kategoriylar talab va taklifni hisobga olmaslik tarmoqni rivojlantirishga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazishi mumkin. Jahon bozoridagi maxsulot turlariga bo'lgan talab va taklifni hisobga olish, birinchidan, qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan ekin maydonlarini aniq belgilash imkonini bersa, ikkinchidan, dunyo mamlakatlari amaliyotidan kelib chiqib mamlakatimiz qishloq xo'jaligi tarmog'ida maxsulot yetishtirish, ichki iste'mol va eksport ko'rsatkichlari bo'yicha davlatning rivojlanish darajasiga mos keluvchi ilmiy asoslangan nisbatlarni ishlab chiqishga imkoniyat yaratadi. Talab va taklif nisbatini hisobga olgan holda ekin maydonlari hajmini ilmiy asosda belgilanishi maxsulot yetishtiruvchilarni bozorga moslashuvchanlik darajasini ta'minlaydi.

Qishloq xo'jaligini tashkil etish, boshqarish va yalpi maxsulotni ishlab chiqarish maxsulotlariga nisbatan ustun darajada o'sishida tarmoqni o'ziga hos xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga egadir. Bu xususiyatlar qishloq xo'jaligini boshqa tarmoqlardan farqlantiruvchi ba'zi belgilarini asoslaydi. Jumladan:

- qishloq xo'jaligini rivojlanishi sanoat korxonalarini xom ashyoga bo'lgan talabini qondirish hamda ijtimoiy muammolarni hal qilishda ustivor yo'nalish ekanligi;
- qishloq xo'jaligida yetishtirilgan xom ashyoni jamiyat a'zolari iste'moli uchun mos holga keltirish bir necha bosqich ishlov berish jarayonlarini talab etishi;
- maxsulot yetishtiruvchilarni oraliq tayyor mahsulot bilan o'zlarini ma'lum bir ko'rinishdagi iste'mol talablarini qondirish imkoniyatlariga ega emasligi (sabzavot, don, chorva mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar tayyor mahsulotni hech qanday qayta ishlovlarsiz shaxsiy iste'moli uchun foydalanishlari mumkin);
- qishloq xo'jaligida maxsulot ishlab chiqarish sermehnat va iqtisodiy vositalar bilan muntazam tartibga solishni talab etuvchi soha ekanligi va h.k..

Maxsulot yetishtirishni samarali tashkil etish masalalari bevosita boshqaruvni qanday tashkil etilganligi bilan bog'liqdir. Boshqaruv faoliyati esa mehnatni tashkil etish jarayonining xilma-xil jihatlaridan biri bo'lib, unga xos bo'lgan barcha elementlardan – mehnat predmeti, mehnat vositalari, mehnat va uning natijalaridan iborat bo'ladi. Har qanday maqsadga yo'naltirilgan faoliyat, shu jumladan boshqaruv faoliyatining asosini ham tabiat, jamiyat va tafakkurning ob'ektiv qonuniyatlarini tashkil etadi. Korxonani boshqarish keng qamrovli faoliyat bo'lib, uning tarkibiga quyidagi elementlarni kiritish mumkin:

- boshqaruv mexanizmi (umumiyligini qonuniyatlar, tamoyillar, maqsad va vazifalar, usullar);
- boshqaruv tarkibi (boshqaruv organlari, mutaxassis xodimlar, texnik vositalar va boshqa);
- boshqaruv jarayoni (qarorlarni qabul qilish va amalga oshirish, boshqaruv texnologiyasi va tartibi, xodimlar faoliyatini tashkil etish).

Qishloq xo'jalik korxonalarini boshqaruv vazifalarini bajarishga ma'lumki, tashqi va ichki omillar o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Ichki omillarga qishloq xo'jaligiga ajratilgan maxsulot maydonlarining xajmi, tarmoqda ishlab chiqarish resurslarini taqsimlanishi, texnik va texnologik qurollanish darajasi, mehnatni tashkil etish usullari, ishlab chiqarish xarajatlari va baho siyosati kabi dastaklar kiradi. Bu omillarni ma'lum darajada oldindan rejalashtirish va nazorat qilish mumkin.

Tashqi omillar qishloq xo'jalik korxonasidan tashqaridagi muhit ta'sirida vujudga keladi. Ular qatoriga qishloq xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma sub'ektlarining amaldagi faoliyat darajasi, maxsulot ishlab chiqarish jarayonidagi raqobat muhiti, tabiiy-iqlim shart-sharoitlar, siyosiy va ijtimoiy omillar, huquqiy-me'yoriy baza va davlat boshqaruvi kabi omillar. Qishloq xo'jaliklarida boshqaruv tamoyillarini yaxshi o'zlashtirgan boshqaruvchilargina mazkur tizimda boshqaruv maqsadi va vazifalarini chuqr anglab, oqilona qarorlar qabul qilishi mumkin. Bu tamoyillarga esa quyidagilar kiradi:

Mehnat taqsimoti tamoyili mehnatni tashkil etish va boshqarishda vazifalar va majburiyatlarni xodimlar o'rtaida oqilona taqsimlash jarayonini anglatadi.

Intizom korxona xodimlari va ishchilarning belgilangan mehnat tartibi va qoidalarga so'zsiz rioya etishini va hurmat bilan yondoshishini talab etadi.

Maqsadning yagonaligi tamoyili korxonadagi barcha boshqaruv xodimlari, mutaxassislar va ishchilarning yagona maqsad va vazifalar yo'lida birlashishi zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Shaxsiy manfaatlar va korxona manfaatlarini qo'shib olib borish tamoyili - korxonaning har bir xodimi o'z shaxsiy manfaati yo'lida qattiq mehnat qilish bilan birga, o'z manfaatlarini korxona manfaatlaridan ustun qo'ymasligi lozimligini anglatadi. Shu bilan birga boshqaruvchilarning korxona manfaatlarini ko'zlab qabul qilgan qarorlari xodimlar va ishchilarning manfaatlariga ziyon yetkazmasligi lozim.

Tejamlik va samaradorlik- korxona faoliyatida moddiy-texnik, moliyaviy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish orqali eng kam xarajatlar evaziga maksimal foyda olish muhimligini anglatadi.

Javobgarlik va tavakkalchilik- boshqaruvchi o'z faoliyati natijalari uchun ma'lum bir javobgarlikka ega bo'lishi, bunda ma'lum tavakkalchilik (risk) elementlarini ham hisobga olishi lozim.

Tarmoqni rivojlantirish va yalpi maxsulotni ishlab chiqarish maxsulotlariga nisbatan ustun darajada o'sishida mehnat unumdarligini oshirib borish muhim ahamiyatga egadir. Qishloq xo'jaligida mehnat unumdarligi mahsulot birligini ishlab chiqarishga ketadigan mehnat sarflarini kamayib borish jarayonidir va quyidagilar bilan asoslanadi:

- qishloq xo'jaligi xo'jaliklarini moliyaviy mablag' barqarorligi;
- samarali moddiy-texnika va xizmatlar bozorini mavjudligi;
- tarmoqni mexanizatsiyalashganlik darajasi;
- talab va taklifga mos holda mahsulot ishlab chiqarish;
- jonli mehnatdan kamroq foydalanish va boshqalar.

Bozor munosabatlari qonuniyatlari amal qilayotgan sharoitda maxsulot yetishtiruvchilarning asosiy maqsadi ko'proq daromad olishga qaratilgan bo'lib, ular o'z maqsadlariga erishishda eng qulay va samarali bo'lgan yo'lni tanlashadi. Pirovardida tanlangan yo'l mehnat unumdorligini turli xil ko'rinishda shakllanishini yuzaga keltiradi. Tarmoqda arzon ishchi kuchi mavjud bo'lgan holatda ulardan foydalanish darajasi yuqori bo'ladi va mehnat unumdorligini pasayishi tendentsiyasini, texnika vositalari xizmatlarining arzonligi esa qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligini o'sib borish tendentsiyasini asoslaydi. Xullas, qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligiga erishish tarmoqda quyidagi ijobjiy jihatlarni shakllanishiga asos bo'ladi:

- mehnat sarfi harajatlarini qisqarishi, yerdan, suvdan, moddiy resurslardan samarali foydalanish;
- maxsulot hajmini intensiv o'sishiga erishish;
- mahsulot tannarxini pasayishi va daromadning ortishi;
- maxsulot yetishtiruvchilar moddiy manfaatdorligini oshishi va boshqalar.

Qishloq xo'jaligida moddiy-texnika resurslari ta'minoti masalasi tarmoqni rivojlanishiga keskin ta'sir o'tkazuvchi omillardan hisoblanib, bozor munosabatlariga o'tish sharoitida ularning harid baholari yetishtirilayotgan xom ashyo harid baholari bilan mutanosib bo'lishi talab etiladi. Aksincha, sanoatda ishlab chiqarilib qishloq xo'jaligida foydalanila yotgan moddiy texnika resurslarining narxlari va maxsulot xom ashyosi harid narxlari o'rtasidagi nomutanosiblik maxsulot tannarxini yuqori bo'lishiga sabab bo'lib, bu holat qishloq xo'jaligi iqtisodiy samaradorligiga o'zining jiddiy salbiy ta'sirini o'tkazishi mumkin. Ammo, qishloq xo'jaligining iqtisodiy samaradorligi moddiy texnika vositalarining narxlari bilan bir qatorda ulardan samarali foydalanishga ham bog'liqdir. Moddiy-texnika vositalaridan samarali foydalanmaslik oqibatida agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida o'tkazilmaslik holatlari tuproq unumdorligining pasayib ketishi hamda maxsulot hosildorligining kamayib ketishiga sabab bo'ladi.

Tarmoq rivojlanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillar mulkchilik munosabatlari bilan bevosita bog'liqdir. Qishloq xo'jaligida mulkka egalik qilish va undan foydalanishni bozor munosabatlari talablariga moslashtirilishi o'z navbatida maxsulot yetishtiruvchilarning mulkka va mehnatga bo'lgan munosabatlarini yaxshilanishiga olib keladi. Shu asosda qishloq xo'jaligida agrar munosabatlarni shakllantirishda moddiy mafaatdorlik tizimini takomillashtirish talab etiladi. Bu esa ijtimoiy munosabatlarga asoslangan bozor iqtisodiyotining asosiy talabidir. Ushbu maqsadni amalga oshirish tarmoqda amal qilayotgan huquqiy-me'yoriy xujjatlarni takomillashtirilishiga bog'liq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda mamalakatimiz qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'nalishlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish

yo'nalishlari nazariy asoslardan samarali foydalanilishi o'yaymizki, amaldagi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun mustahkam asos bo'ladi.

### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Sh.M.Mirziyoyev. Rizq-ro'zimiz buniyodkori bo'lgan qishloq xo'jaligi xodimlari mehnatini ulug'lash, soha rivojini yangi bosqichga ko'tarish – asosiy vazifamizdir, Xalq so'zi, 10.12.2017 yil

2. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev dated February 7, 2017 No PF-4947 "On the Action Strategy for the further development of the Republic of Uzbekistan"

3. A.B.Turjanский, В.Л.Аничин. Сельскохозяйственная кооперация и агропромышленная интеграция. Учебное пособие. 2-е изд. испр. и доп. - Белгород: Издательство БелГСХА, 2010. – 125 с.

4. P. R. Xakimov. Economics of agro-industrial complex. Textbook. - Т.: TDIU, 2009. – 19 page.

5. O.Shermatov, B.Nosirov, R.Imomov, M.Qobulova. Problems of effective usage of lands in agriculture for ensuring food security. South Asian Journal of Marketing & Management research, 10 (4), p. 71-76. <https://saarj.com/wp-content/uploads/special-issue/sajmmr/2020/SAJMMR-APRIL-2020-SPECIAL-ISSUE.pdf>.

6. M.Ya.Qobulova. Effective use of human capital in the development of integration of agricultural sectors. ISSN 2091-573 Bulletin of Khorezm Mamun Academy-10/2020, scientific journal.-№10(67) 72 бет. <http://mamun.uz/uz/page/56>

7. Шерматов О.А, Кабурова М.Я.Экономическая эффективность в оценке критериев и показателей в сельском хозяйстве.Актуальная наука. Международный научний журнал. ISSN 2587-9022.№10(27) 2019 г

8. Qobulova Maxpubaxon Yakibovna. Effective use of human resources in the development of agro-industrial integration. Journal of "Iqtisodiyotda innovatsiyalar". ISSN 2181-9491. №8 (2020). 86-94-бет. <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9491-2020-8>